TILLARARO MULOQOTNING MOHIYATI VA XUSUSIYATLARI

Ergasheva Oydinoy Marat qizi
Personal Development Process (PDP) University

Mazkur maqolada shuni ta‘kidlash lozimki odamlar bir birining fikriga tushunishga intilgandan buyontarjima jarayoni, boshqacha qilib aytganda, tarjima san‘ati mavjuddir. Tarjimaga ehtiyoj sezilmagan birorta tarixiy davr bo‘lmagan deb baralla aytish mumkin.

Tarjima insoniyat tarixida do‘stlik ko‘prigi bo‘lishdan tashqari, madaniyat va ma‘rifat sari ochilgan keng yo‘ldir. Tarjima qiyin, ammo maroqli san‘atdir. Biz uchun yot bo‘lgan tilda yaratilgan badiiy asarni o‘z tilimizga o‘girish, badiiy fikr yaratish naqadar zavqli. Ming afsuski, xozirgi, ya‘ni texnika xukmronligi davrida so‘z qadriga yetish, uning sexrlovchi kuchini xis qilish birmuncha susaydi.

Ma‘lumki, tarjima bevosita yoki bilvosita amalga oshiriladi. Shu paytgacha vujudga kelgan tarjimalar zikr etilgan vositalar orkali o‘z kitobxoniga yetib keldi. Rus adabiyoti namoyondalarning bevosita, ingliz, nemis va fransuz adiblarining asarlari esa bilvosita, ya‘ni rus tili orqali o‘girildi. Keyingi o‘ttiz yil ichida bevosita chet tillardan qilingan tarjimalar xam paydo bo‘ldi. Xattoki ayrim shoirlarimiz asl nusxadan tarjima qilish maqsadida ingliz va nemis tillarini o‘rganishga kirishdi.

Ularning bunday yo‘l tutishi maqtovga arziydigina emas, balki tarjima. sifatining yuqori pog‘onaga ko‘tarilishi uchun bosigan bekiyos xayrli qadamdir.

Aksariyat tarjimalarning rus tili orqali vujudga kelganligi xammamizga ayon, bu xol davr va extiyoj taqozosi edi, albatta. Xozirgi vaqtda ham asosan rus tili orqali tarjima qilish ustunlikka ega, chunki yirik tarjimonlarimizning barchasi rus tilidan foydalanadi. Chet tili mutaxasisi xorijiy tilni bilsada, o‘zbek adabiy tilini me‘yorida bilmaydi, bilganlari esa ijodkorlik iqtidoridan maxrum.Shu boisdan ayrim kishilarning bilvosita tarjimadan voz kechish kerak degan fikrlariga sira qo‘shilib bo‘lmaydi.

Tarjima badiiy ijodning eng mashaqqatli soxasi bo‘lib, u kishidan bag‘oyat katta bilim egasi bo‘lishdan tashqari, yozuvchilik yoki shoirlik iqtidoriga molik bo‘lishni talab qiladi. U asarini o‘girayotgan yozuvchi yoki shoir bilan bellasha oladigan san‘atkor darajasiga ko‘tarilmog‘i lozim, aks xolda u yaratgan tarjima nursiz va befayz bulib, xech kimga zavk bag‘ishlamaydi, umri qisqa bo‘ladi.

Taniqli tarjimashunos olim G‘aybulla Salomov yozganidek, «Tilni tilga ulaganda emas, balki dilni dilga payvand etganda tarjima paydo bo‘ladi».

Tarjima murakkab jarayon hisoblanadi bunda to‘liq yaxlitlikka erishish uchun tarjimonga badiiy sezgi, qobiliyat va keng aql idrok yetishmasligi mumkin.

Tarjima qilinayotgan asar tili va o‘z ona tilini yaxshi bilish bilan bir qatorda tarjimon muallif uslubi, asarda tasvirlangan obrazlar xarakteri, hayoti, urf-odatlar, turmush shart sharoitlari, psixologiya, shu bilan birga tarix, adabiyot diniy va milliy qarashlar asardagi turli holat va jarayonlar haqida chuqur tasavurga ega bo‘lishi kerak. Adekvat tarjima uchun nafaqat asar badiy butunlik sifatida aksetishi, balki uning tili va uslubini muallif o‘zi tasvirlagandek tassavur qilinishi kerak.

Agar tarjimon asar tilini bilmasa va uning taglama tarjimalari yoki bilvosita qilingan tarjimalari nusxalaridan foydalanib tarjima qilsa, asliyat matni va tarjimaning mosligi borasidagi muammolar yanada ko‘payadi. Asl nusxani boshqa nusxalar vositasida tarjima qilishda asarning mazmun va shakli o‘zgaradi va bu muallifning individual uslubini yo‘qolishiga va ko‘plab boshqa xatoliklarga olib keladi. Tarjimada asarning o‘ziga xosligini tiklash muvaffaqiyatli amalga oshishi uchun, davrlar xarakterini, muallifning badiy ijodiy uslubini asar qahramonlari nutqini tarjimon imkon boricha to‘g‘ridan-to‘g‘ri asl nusxadan tarjima qilishi kerak.

Tarjimaga filologik taxlil nuqtai nazaridan yondashish xorijiy tildagi matnni teran anglash va tarjima jarayonida asl nusxa matnidagi so‘z va iboralarning tagmazmunini tarjima tilida qayta yoritishda qo‘l keluvchi usullardan biri hisoblanadi.

Ushbu muammoni buyuk ingliz adibi Shekspir asarlarining rus va o‘zbek tillarga tarjimasi tarixi asnosida ko‘rib o‘taylik.

Ma‘lumki, Shekspir fojealari dastlab rus tiliga XVIII asrda tarjima qilingan.

Aniqrog‘i 1748 yil shoir A. Sumarokov “Hamlet” fojeasini rus tiliga o‘giradi. Bu tarjima rus adabiyotida klassisizm davri adabiyotining maxsuli bo‘lib, unda klassisizm uslubining ustivorligi yaqqol sezilib turadi. Birinchidan, shoir A.Sumarokov “Hamlet” tarjima qilishdan ko‘ra ko‘proq, unga klassisizm aqidalariga binoan taqlid qilgani, qolaversa rus tilida yangi “Hamlet”ni yaratgani ko‘rinib turardi. Ikkinchidan, klassisizm qonunlariga mos keluvchi, fojeaviy asarning so‘nggida voqyea yaxshilik bilan tugashi zarurligi “Hamlet”ning ruscha matniga ham ko‘chib o‘tgandi. Ya‘ni, A.Sumarokovning “Hamlet”ida ham oxirgi saxnada Hamlet va Ofeliyaning orzu-havaslari ro‘yobga chiqib, ularning nikohi bilan yakunlanadi. Xullas, A.Sumarokov tarjimasi o‘sha davrdagi rus shekspirshunoslari tomonidan tanqidga uchraydi. Demak, XVII-XVIII asrlarda Yevropada hukmron bo‘lgan klassisizm aqidalari tarjima asarlariga ham o‘z hukmini o‘tkazgan. Qolaversa, “filologik tanqid va talqindan” uzoq bo‘lgan XIX asrga kelib, tarjimada, hususan Shekspir asarlarini rus tiliga o‘girishda “taqlidiy tarjima” o‘rnini “erkin tarjima”uslubi egallaydi. Bu uslub davrining ilg‘or adabiy oqimi bo‘lgan romantizm qonuniyatlariga mos edi. Bu uslubning o‘sha davrda rus tiliga o‘girilgan va rus teatrlarida saxnalashtirilgan “Hamlet” fojeasining M.Karabonov variantiga nisbat berib aytish mumkin. XIX asrning ikkinchi yarmida “Hamlet”ning rus tiliga qilingan tarjimalarida asliyatga erkin yondashishdan chekinish xolati kuzatilib, badiiy asar matniga “Shekspir tiliga e‘tibor berish va tarjimada asliyat tili obrazliligini saqlab qolishga”ga asosiy etibor qaratilgan edi. Bu xususiyat Shekspirshunos olimlarning ta‘kidlashicha o‘sha yillarda amalga oshirilgan Shekspir asarlarining P.Vronchenko K.Kyuxelbeker tarjimalariga mosligini takidlab o‘tadilar. Ayni paytda “erkin tarjima” usuli “Hamlet”ning 1889 yilda A.Moskovskiy tarafidan o‘girilgan tarjimasida hukmron bo‘lib qolgan edi.

XX asrga kelib, Shekspir asarlari rus tiliga yanada mukammal, ta‘bir joiz bo‘lsa, realistik tarjima (G. Gachechiladze) prinsiplariga amal qilingan holda tarjima qilina boshladi. Bu holatni, tarjima ustalari B.Pasternak, M.Lozinskiy tarjimalariga nisbat berib aytish mumkin.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1.Tarjima san‘ati. Maqolalar to‘plami. G‘.G‘ulomov nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti. -// T, 1976.

2.Xolbekov M.N. “Shekspir bepoyon”.-// T, O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati. 2008.

3.Shekspir Vilyam "Pesalar", Gamlet, Otello, qirol Lir, Yuliy Sezar, Romeo va Juletta. T., O'zadabiynashr. 1960 yil.

4.Kazan, H. N. (2023). ENHANCING SPEECH SKILLS IN FUTURE FOREIGN LANGUAGE LEARNERS THROUGH MEDIA LITERACY. International Journal of Advance Scientific Research, 3(11), 68-76.

5.Nadirova-Kazan, H. (2023, November). THE IMPACT OF MEDIA LITERACY ON THE DEVELOPMENT OF SPEECH SKILLS: A COMPREHENSIVE ANALYSIS. In Next Scientists Conferences (pp. 22-25).